UO‘K 821 512.133

“MEHROBDAN CHAYON”NING UCHINCHI NASHRI HAQIDA

D.H. Quronov

Maqola Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining 1935-yilda nashr etilgan uchinchi nashrini o‘rganishga bag‘ishlangan. Uni birinchi va ikkinchi nashrlar bilan taqqoslash va matnga kiritilgan o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali bu o‘zgarishlar asosan matnni takomillashtirish, uslubni yaxshilash, qo‘shimcha tafsilotlar orqali turli xil aniqliklar berish kabilarga xizmat qilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Shu bilan birga, matnda muallifniki deb hisoblab bo‘lmaydigan o‘zgarishlar ham mavjud: ularning ba’zilari tahririyat o‘zgartirishlari bo‘lib, ba’zan noo‘rin, ba’zan esa shunchaki texnik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *matn, ikkinchi nashr, muallif, muharrir, tuzatish, o‘zgartirish.*

Статья посвящена изучению третьей редакции романа Абдуллы Кадыри “Скорпион из алтаря”, опубликованной в 1935 году. Путем сопоставления с первой и второй редакциями, анализа внесенных в текст изменений, делается вывод о том, что в большинстве своем эти изменения послужили совершенствованию текста, улучшению стиля, различного рода уточнениям путем детализации и пр. Вместе с тем, в тексте встречаются и такие изменения, которые нельзя считать авторскими: одни из них являются редакторскими правками, которые иногда не уместны, а другие возникли просто как результат технических упущений.

Ключевые слова: *текст, вторая редакция, автор, редактор, исправление, изменение.*

“Mehrobdan chayon” romanining uchinchi – 1935-yil nashri joriy etilganiga besh yilgina bo‘lgan lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi endigina yana isloh qilingan bir vaqtda amalga oshirilgan. 1934-yilda o‘zbek lotin yozuvi isloh qilinib, unga jiddiy o‘zgarishlar kiritildi. Alifbodagi unli harflardan uchtasi chiqarilib, ularning soni oltitaga keltirilgani bu o‘zgarishlarning eng muhimi edi. Oqibat yozuvda singarmonizm hodisasining ifodalanishi deyarli barham topdi, eshitilgani kabi yozish prinsipi ustuvor bo‘lmay qoldi, imloda hukm surgan “anarxik” turfaliklar keskin kamayib, yozma nutqning unifikatsiyalashish jarayoni kuchaydi. “Mehrobdan chayon”ning uchinchi nashri ayni jarayon endigina harakatga kelgan bir vaqtda amalga oshganki, 1933-yil nashriga qaraganda matnning grafik shakllantirilishi va imlosida kuzatiluvchi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar eng avval shu bilan izohlanadi. O‘zgarishlar, xususan, matnni abzatslarga ajratish, dialoglarni shakllantirish, bosh harflarni qo‘llash kabilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, matnga kiritilgan qator tahririy o‘zgartirishlar, imloviy, uslubiy va punktuatsion tuzatishlar avvalgi nashrlarga qaraganda, shubhasiz, romanning matniy sifatini yaxshilagan.

Avvalo, 1933-yil nashrida yo‘l qo‘yilgan ko‘plab qo‘pol xatolar bartaraf etilgan. Shuning uchun imkon qadar ulardan boshqa xatolarga to‘xtalamiz. Sharti shuki, biz “Mehrobdan chayon”ni ilk bor 1933-yil nashridan o‘qiyotgan oddiy o‘quvchi bo‘lib olamiz-da, savol tug‘ilgan joydan yana aslimizga qaytamiz. Masalan, 1933-yil nashridagi tarixiy sanalar keltirilgan “Zulm o‘chog‘i” faslida o‘qiymiz: “*7-1286 nchi yillarda “Ulug‘ nahr” va “Xon arig‘” deb mashhur arig‘ni qazitdi”.* O‘qiboq xayolimizda “bitta ariqni shunchalar uzoq qaziydimi? Yo‘g‘-a, shunchaki boshida uchta raqam tushib qolgandir? Xo‘p, “128”ni joyiga qo‘ysa ham bo‘lmas ekan-da?!..” kabi savollar bir-bir tizila boshlaydi. Ularga javob izlashga tushamiz.

Ma’lumki, eski yozuvda harflar o‘ngdan chapga, raqamlar esa chapdan o‘ngga qarab yoziladi. Ya’ni 1929-yil nashridagi 1286-7 sanasi lotin yozuvida ham ayni shu shaklda yozilishi kerak, chunki bunda ham raqam chapdan o‘ngga yoziladi. Shuni hisobga olmaganidan tabdilchi Ulug‘ nahr arig‘ining qazilish davrini beixtiyor 7-1286-hijriy yillarga – saodat asriga ko‘chirib qo‘yadi. Ya’ni eski o‘zbek yozuvini yaxshi bilmaslik oqibatida qo‘pol va kulgili bir xatoga yo‘l qo‘yilgan va 1935-yil nashrida bu xato tuzatilgan. Xullas, bizning bayon usulimiz shunday bo‘ladi: savol-u javoblarni to‘liq shu tarz shakllantirmasak ham, 1933- va 1935-yil nashrlari orasidagi tahririy o‘zgarish jarayonini xayolda tiklab olsa bo‘ladigan tarzda yoritish harakatida bo‘lamiz.

Eski yozuv va adabiy tilni yaxshi bilmaslik ham keyingi nashrlardagi xatolarni keltirib chiqargan asosiy omillardandir. Masalan, o‘ziga ishongan do‘stini tunqotarga *“sotgan”* Sultonali haqida 1929-yil nashrida *“xonning haqqi namagini benuqson ado qilib xotirjam devong‘a qaytdi”* deya yashirin kinoya qilinadi. Gap tarkibidagi *“haqqi namak”* forsiy izofasi “tuz haqi” ma’nosida bo‘lib, Sultonali do‘stini sotish evaziga xonning tuz haqini ado etgani nazarda tutiladi. Izofa tarkibidagi “haqqi” (حقّی) so‘zini “haqiqiy” deb o‘qish natijasida 1933-yil nashrida *“xonning haqiqiy namagini benuqson ado qilib”* jumlasi paydo bo‘lib, mazmunga jiddiy putur yetadiki, bu narsa 1935-yil nashrida tuzatiladi.

Eski va yangi yozuv orasidagi tafovutlar bilan bog‘liq yuzaga kelgan yana bir muammoli holat haqida to‘xtalmasak bo‘lmaydigan. Personaj nutqini o‘ziga xos tasvirlashga intilgan adib Samad bo‘qoqning gap orasi “iyqillab” qo‘yish odatini ta’kidlaydi. 1929-yil nashrida buning uchun uning gaplarida o‘rni bilan “ayn” (ع) harfini so‘zga chiziqcha bilan ulab qo‘yadi. Agar isloh qilingan eski yozuvdan “ayn” harfi chiqarilgani va shunga qaramay 1929-yil nashrida undan foydalanilayotgani e’tiborga olinsa, adib bu detalga muhim ahamiyat berganini anglash qiyin emas. Ravshanki, 1933-yilda bu usulni aynan berish imkoni yo‘q, shuning uchun “ayn” o‘rniga so‘zdan keyin chiziqcha qo‘yib, “i” harfini ulash (*bu bələ-i kimy-i Ordaqa mirzə boşiliq kim*) bilan kifoyalanilgan. Tabiiyki, bu yo‘l bilan arab yozuvi yordamida olingan badiiy samaraga erishilmagan, aksincha, nutqiy xususiyat tasviri notabiiyroq chiqib qolgan. Shuni hisobga olib va ma’qul variant topmaganidan bo‘lsa kerak, 1935-yil nashrida muallif bu nutqiy detaldan umuman voz kechgan (*bu bala kim-u, ordaga mirzabaşiliq kim)*. Sal quyiroqda personaj replikasidan so‘ng *“Samad bo‘qoqning bu so‘nggi g‘iyqillashida tomog‘i ostidagi yo‘g‘on tomirlari turtib chiqdi”* deyilgan. Modomiki, detaldan voz kechilgan ekan, tahrirda bu jumla tushirib qoldirilishi lozim edi. Holbuki, uchinchi nashrda ham, umuman, keyingi nashrlarning ko‘pchiligida ham bu jumla saqlanib qolgan – tanadagi ortiq kabi hech bir vazifasiz, shunchaki mavjud, xolos.

Ikkinchi nashrda Xudoyorxon uchinchi marta taxtga o‘tirgan vaqtda o‘rus istilochilari Qo‘qonga yaqinlashib qolgani eslatiladi-da, *“Bu kungi sharoit tajribalik xonni boshqacha ushlashka majbur etar edi”*. Mazmunning chala ekani, nimaningdir tushib qolganini sezish qiyin emasdek, umumiy tarzda bir nima tushunsa ham bo‘ladigandek-ku, deb o‘taveradi ko‘pchilik. Aslida bitta so‘z tushib qolgani – katta narsa. Tamsil qilsak, bitta tishing tushgan kabi: bemalol chaynayotgandeksan, lekin kemtik o‘rnini, nimadir kamligini mudom his qilib turasan. Yana ilk nashrga qaraymiz: *“Bu kungi sharoit tajribalik xonni boshqacha siyosat ushlashka majbur etar edi”*. Endi so‘zning zarurligi haqida gapirsa ham bo‘ladi. Adib Xudoyorxonning obodonlashtirishga katta e’tibor qila boshlashi, bir tomoni, siyosiy zarurat ekaniga diqqatni jalb etmoqda. Talqinda biryoqlamalikdan qochish bilan birga, o‘quvchini teranroq o‘ylash, hatto Xudoyorxondek “yomonimiz” ham shaxsiy manfaat doirasidagina qolib ketmaganini anglashga yo‘naltiradi. Demak, “siyosat” so‘zining bo‘lishi adib konsepsiyasini ifoda etilishda g‘oyat muhim, uning tushib qolgani katta yo‘qotish bo‘ladi. Zotan, mana bu gap ham shu so‘zga tayanadi: *“Abdukarimxondan beri o‘nlab xonlarga yarab kelgan o‘rdani buzib, yangi o‘rda bino qilishi o‘z kayfiga qaraganda ham o‘ruslarga jonliliq ko‘rsatish, yaltirasin sha’n-u shavkat bilan Farg‘onani o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun edi”.* E’tibor bering, o‘nlab xonlarga xizmat qilgan o‘rdani buzib yangisini qurish – xazinani isrof qilish bo‘lib ko‘rinishi tayin, lekin *“o‘ruslarga jonliliq ko‘rsatish”* ham juda muhim, bu – siyosat. Shularni o‘ylaganda, “siyosat” so‘zi atayin, hukmron mafkuraga mos xon-u xonlikni qoralash uchun tushirib qoldirilgan emasmikan, degan fikr ham kelib qoladi beixtiyor. Xullas, 1935-yil nashrida ikkinchi nashrda yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato tuzatilgan – so‘z o‘z o‘rniga qaytarilgan.

Darvoqe, “siyosat” so‘zining mazmuniy qimmati anglanmagani sababli bo‘lsa kerak, *“o‘rdani buzib, yangi o‘rda bino qilish”* jumlasida ikkinchi “o‘rda” so‘zi tushirib qoldirilgan. Yuzaki qaraganda “o‘rda” so‘zining takrorlanishi ortiqchadek ko‘rinishi mumkin, biroq *“o‘rdani buzib, yangi bino qilish”* degani ilk nashr kontekstidagi ma’noni berolmaydi. Negaki, bu yerda gap o‘rda haqida emas, umuman *bino* haqida bo‘lib qoladi. Agar so‘z takrorlanayotgani yoqmasa, u holda *“o‘rdani buzib, yangidan bino qilish”* deyilganida ham bir navi, qabul qilsa bo‘lgudek edi. Biroq o‘shanda ham mazmuniy yutqiziq yuzaga kelar edi, chunki bu holda *“o‘rdani buzib, yangi o‘rda bino qilish”* jumlasidagi ta’kid yo‘qoladi. Holbuki, aynan shu ta’kid faktga ikki turli munosabat: “xon va uning harami uchun qurilgan binoga xazinadan ortiqcha sarf” deb qarash bilan “siyosat uchun zarur” deb bilishni bir nuqtada birlashtiradi. Uchinchi nashrda “o‘rda” so‘zi ham o‘rniga qaytarilgan. Mazkur hol bu tahririy tuzatishlar bevosita muallif tomonidan amalga oshirilgan, deb o‘ylashga izn beradi.

So‘zning mexanik tarzda tushib qolishi hollari ham mazmunga muayyan ta’sir qilmasdan qolmaydi. Qizig‘i shundaki, ba’zan so‘z tushib qolgani aniq bilinmay, uslubiy g‘alizlik yoki boshqa bir xato o‘tib ketgandek ko‘rinadi. Og‘acha oyim oqila ayol – *“mamlakat ishi xalaldor bo‘lishi”* Gulshanning o‘z faoliyatini cheklashi uchun kamlik qilishini yaxshi biladi,

shuning uchun uni *“muhtojlikdan qo‘rqsangiz men bor”* deya xotirjam etadi, in’om buyuradi. Ayni epizod tasvirida mana bu gap bor: *“Shu holda Ahsan munsakni uning ustiga qo‘liga ikki tilloni ham uzatdi”*. Bir qarashda bu o‘rinda bitta vergul tushib qolgan, shuni o‘rniga qo‘yilsa – olam gulistondek. Ya’ni agar “munsakni” so‘zidan so‘ng vergul qo‘yilsa, binoyidek jumla paydo bo‘ladi: “*Shu holda Ahsan munsakni / uning ustiga qo‘liga ikki tilloni ham uzatdi”*. Ko‘rib turganimizdek, pauza “***munsakni*** va uning ustiga qo‘liga ikki ***tillani***” tarzidagi uyushiq bo‘laklarni yuzaga keltiradi. Holbuki, 1929-yil nashrida bu gap “*Shu holda Ahsan munsakni uning ustiga yopib qo‘liga ikki tilloni ham uzatdi”* shaklida. Gulshan o‘rnidan turib malikaga bosh egib turgan holda Ahsan uning ustiga munsak yopadi va qo‘liga ikki tillani uzatadi – marosim risola (protokol)ga muvofiq kechadi. Qarang, u qadar sezilmagani holda ham so‘zning tushib qolishi marosimni oddiy oldi-berdiga aylantirib qo‘ygan ekanki, muallif 1935-yil nashrida buni tuzatgan.

Avvalgi nashrdagi so‘zning ommaga tushunarliroq bo‘lgan ma’nodoshi bilan almashtirilishi ham, bizningcha, ko‘proq muallif amalga oshirgan tahrir sanalishi mumkin. Albatta, bunday tahrirning nashriyot muharriri tavsiyasi bilan qilingan bo‘lishi ehtimoli ham katta. Shunday tahrirlardan biri, masalan, Abdurahmonning alami aks etgan mana bu jumlada kuzatiladi: *“Bir besavod yatim va **badnajod** isqirt o‘rdadan falon tillo vazifador bo‘lsin va shu tufaylda Ra’no kabi bir qizni ham o‘ziniki qilsin...”* 1929-yil nashrida “*badnajod*” (داژند دب) shaklida berilgan so‘z 1933-yil nashriga “*bad navod*” shaklida ko‘chganki, bu so‘zning ma’nosi lug‘atlardan topilmadi. Shuning uchun ham uni xato o‘qilganga sanadik. Xatoning omilini esa, o‘zimizcha, forsiy alifbodagi qattiq “j” (ژ) harfi ustidagi uchta nuqta chaplanganroq bo‘lgani uchun “vov” o‘qilganmikan, deb taxminladik. Lug‘atda “najod” (داژند) so‘zining “asl, nasab, nasl” ma’nolari borki, bu gap kontekstiga mos keladi. Ya’ni mulla Abdurahmon alamli o‘ylarida Anvarni “zoti past” deb kamsitmoqda, alamidan chiqmoqda. Garchi mazmunan o‘rinli qo‘llangan bo‘lsa-da, “najod”, “badnajod” so‘zlari tilimizda ommalashgan emas, aksariyat o‘quvchilarning tushunishida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shuni o‘ylab bo‘lsa kerak, 1935-yil nashrida bu so‘z ommaga yaqinroq bo‘lgan*“badasil”* so‘ziga almashtirilgan.

Bundan farqli, so‘zning ma’nosini bilmaslik natijasida 1933-yil nashrida noto‘g‘ri tabdil qilingan o‘rinlar ham 1935-yil nashrida to‘g‘rilangan yoki ilk nashrdagi ko‘rinishga keltirilgan. Jumladan, Xudoyorxonning uchinchi xonlik davri haqida *“Uning oxirgi saltanati xonliq istibdodining achchig‘ zulm va ta’addilarining jonso‘z qora sahifalarini tashkil etadir”* deyiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “jonso‘z” so‘zining ma’nosi “o‘ta ta’sirchan, ta’sirli” [11. B. 109] deb berilgan. Holbuki, bu ma’no misolga olingan gap kontekstiga unchalik mos tushmaydi. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da esa bu so‘zning ma’nosi “jon o‘rtovchi, azob beruvchi” [12. B. 592] deb beriladiki, bu gapimizning mazmuniy kontekstiga ko‘proq tushadi. Demak, adib so‘zni ayni shu ma’noda, ilgari bizda ham, fors tilida esa hozirda ham ko‘proq faol bo‘lgan ma’nosida qo‘llagan. Biroq 1933-yil nashrida so‘z “jonsiz” (çansьz) shaklida tabdil qilinganki, natijada gapda mazmunan g‘aliz va tushunarsiz holat yuzaga keladi. 1935-yil nashrida so‘z yana “jonso‘z” (çansoz) shakliga keltirilgan.

Ra’noning Shayx Sa’diy devoniga yashirilgan xatini o‘qigan Anvarning ruhiy holati g‘oyat mahorat bilan ochib berilgan. Jumladan, 1933-yil nashri o‘quvchisi ham Ra’noning *“Men bilan oxirgi martaba vido’lashingiz, siz nash’u namo qilg‘an joyda meni halokat kutadir” jumlasi har qandaydir andishlikni yenggarlik va bu jonso‘z xitobadan ko‘z yumish yigitlik sha’niga yarashaturg‘an ko‘runmas edi”*, – deyilganiga beshak ishonadi. Zero, so‘z xato yozilgani tufayli yuzaga kelgan g‘alizlikka qaramay, “*andishlik*” degan asos bor – “andishani yengadigan ekan” deb tushunilaveradi. Haqiqatda esa, bu yerda adib “durandeshlik” so‘zini qo‘llagan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “mulohazalilik, uzoqni ko‘ruvchilik” [12. B. 515] deb izohlangan bu so‘z 1929-yil nashrida, afsuski, xato shaklda – *“har qandaydur andeshlikni”* ko‘rinishida berilgan. So‘zning birinchi bo‘g‘ini “dur” o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shimchadek qo‘shilib qolgan. Shundan bo‘lsa kerak, 1933-yil nashriga ham so‘z xato (“*qandajdьr əndişlikni*”) ko‘chganki, bu birikma “qandaydir andishalikni” tarzida (ya’ni go‘yo uchinchi bo‘g‘indagi “a” qisqa unlisi yozilmasdan yo tushib qolgan degan o‘yda) o‘qilishi mumkinki, “andishali” va “durandeshlik” so‘zlari ma’nosiga ko‘ra aynan emas. Kontekstga “durandeshlik” ma’nosi ko‘proq mos deb hisoblangani uchun ham 1935-yil nashrida aynan shu so‘z o‘qiladigan shaklda tahrirlangan.

Tan olish kerak, 1933-yil nashrida o‘quvchini hayron qoldiradigan o‘rinlar tez-tez uchrab turadi. Jumladan, *“Xudoyor xotinini tashlab Buxorog‘a qochishg‘a majbur bo‘lg‘andan keyin...”* degan jumlani o‘qib hayron bo‘lishi tayin. Axir, Xudoyorxonda xotin deganning sanog‘i yo‘q deyilgandi, qanday qilib bitta “xotinini tashlab qochadi”?! Buning ustiga gapning davomida *“og‘asini g‘ayri shar’iy ishlarda, jumladan, xotunbozlikda ayblab, taxtga mingan Mallaxon o‘z da’vosiga muvofiq, Xudoyor haramidagi yuzlab xotunlarni o‘z yigitlari orasida xotunlikka taqsim qilib yubordi”,* deyiladi. Ko‘rib turganimizdek, gapning boshlanishi bilan oxiri mazmuniy-mantiqiy zidlik hosil

qilmoqda. Holbuki, aslida 1929-yil nashrida “xotinini tashlab” emas, “*taxtni tashlab*” deyilgan. Ikkinchi nashrda so‘zning almashtirilishiga hech bir zarurat yo‘q, demak, bunda muallif ixtiyorini istisno qilish mumkin. Faqat, “taxt” so‘zining “xotin”ga almashib qolishiga shunchaki texnik xato deya yengil qarab ham bo‘lmaydi, bunga nashrga tayyorlovchilarning e’tiborsizligi sabab bo‘lganini ta’kidlab aytish kerak. Albatta, bunaqa mazmuniy ziddiyat muallif nigohiga cho‘pdek sanchilganini tasavvur qilish qiyin emas – uchinchi nashrda xatolik bartaraf qilingan.

Hatto bir harf almashishi ham mazmunni tamom o‘zgartirib yuborishi yoki tushunarsiz qilib, misoli bir nuqtaning “ko‘z”ni “ko‘r” qilib qo‘yishi mumkinligi haqida mumtoz shoirlarimiz ko‘p aytganlar. Chamasi, noshirlar bu qoida zamonaviy yozuvga taalluqli emas, deb bilganlarmi, e’tiborni juda susaytirganlar. Ma’lumki, romanda haram tasviriga keng o‘rin berilgan. O‘z tasvir usuliga sodiq adib haram tafsilotlarini Gulshanning kirib borishi asnosida bir-bir yoritib boradi. O‘quvchi bir eshikdan ichkarilagan Gulshanga ergashib kiradi: *“Bu haramning kichkinagina suv havlisi edi. O‘rtadagi mis hovuzda ko‘m-ko‘k suv mavj urib, bir necha kanizlar hovuzdan suv olmoqda edilar”*, – deya tushuntirish beradi muallif. Ko‘rib turganimizdek, binoyidek gap – shakli ham, mazmuni ham joyida. 1933-yil nashrida bu gapdagi “o‘rta” so‘zida “t” harfi “d”ga aylanib, jumla *“O‘rdadagi mis hovuzda ko‘m-ko‘k suv mavj urib...”* deb boshlanadigan bo‘lgan. “Xo‘p, nima bo‘pti shunga?!” deguvchi ham topilar, balki. Faqat, keltirganimiz o‘sha “nima bo‘pti?” deguvchining og‘ziga uradigan misol-da! Qarang: roviy “kichkinagina suv havlisi” haqida gap boshlab, so‘ng uning “o‘rtasidagi mis hovuz”ga o‘tdi. Shu fasl boshida avval Yangi o‘rdani obdon ta’riflanib, so‘ng Gulshanning soqchilar hech kimsani kiritmayotgan o‘rdaga bemalol kirgani va haram “darbozasini chog‘lab borg‘ani” aytiladi. Ya’ni badiiy makon yaratilmoqda – muhtasham qurilgan O‘rda bor, uning ichida alohida darbozali haram bor, uning ichida esa o‘nlab hovlilar, “Suv hovli” degani shularning bittasi. Gap shu suv hovli o‘rtasidagi misdan yasalgan hovuz haqida edi, u o‘rdaning o‘rtasidagi hovuzga aylandi-qoldi – o‘quvchi tasavvurida so‘z vositasida jonlanayotgan badiiy makon manzarasi xiralashib-chaplashib ketganday bo‘ldi go‘yo.

Gulshanga ergashgan o‘quvchi suv hovli janubidagi eshikdan haramning birinchi hovlisiga kiradi: *“U qadar keng bo‘lmagan sahn ostiga hisht to‘shalgan, havli yuzida to‘rt-beshta qizil sholdan ko‘ylak va boshlariga sarig‘ sholdan ro‘ymol o‘rab, oyoqlarig‘a bedonadan kafsh, mahsi kiygan yosh kanizlar sochilg‘an holda vazifalari orkasidan yurar edilar”*. Ya’ni o‘quvchi hovlining turli joyiga *“sochilgan”* va har biri o‘z yumushi bilan mashg‘ul kanizlarni ko‘radi. 1933-yil nashrida “sochilgan” so‘zidagi birinchi harf tushib qoladi va kanizlar *“ochilgan”* holda yurgan bo‘lib qoladi. Holbuki, haram ichida hech kim paranji-chachvonda yurmaydi, ya’ni “ochilgan” holda bo‘ladi, buni ta’kidlashga hech zarurat yo‘q, aniqrog‘i, bu ortiqcha ham. Zero, Gulshanning haram hovlisiga kiriboq *“paranji ostida bosilib tartibsizlangan sochlarini tuzatishi”,* keyin paranjisini qo‘liga olib yurishi shuni anglatadi. Demak, yozuvchi kanizlarning hovlida aynan “sochilgan” holda yurganlarini aytmoqchi, xolos, ularning “ochilib” yurganini emas. Ehtimol, nashrga tayyorlovchi xotin-qizlar ozodligi g‘oyalari, paranji tashlash jarayonlari ta’sirida shakllangandirki, uning ko‘zi kanizlarning “ochilib” yurishlariga tushgan bo‘lsa?! Axir, olamni har kim o‘zi xohlaganidek ko‘radi, degan gaplar ham bor-ku.

Harf tushib qolganini ko‘rdik, aksincha, harf qo‘shilishi natijasida shunga o‘xshash holat yuzaga kelgan o‘rinlar ham bor. Gulshanning “qirq qizlar”dagi kanizlar bilan bahs boylashib to‘p o‘ynashi yodingizdadir. Shunda Gulshanning o‘yinni boshlaganini aytiboq, orqasidan “To‘p chiqag‘on edi” deyiladi. O‘yin uchun to‘pning “chiqag‘onligi” – yerga urganda qay darajada tepaga ko‘tarilishi juda muhim. Gap shundaki, to‘pning chiqag‘onligi uning nimadan va qay darajada ustalik bilan yasalganiga bog‘liq. So‘z borayotgan to‘pni haramdagi qizlar ipakdan, o‘zlari uchun g‘oyat hafsala bilan yasaganlar – u boshqalarga qaraganda sifatli bo‘ladi. Gulshanning shu yoshida, mayli o‘yin boshlarida bo‘lsa ham, yosh qizlar darajasida o‘ynashi shunga dalolat qiladi. Xullas, o‘yin mohiyati va qay tarzda o‘ynalishini yaxshi bilgan kishilar uchun bu tafsilot juda muhim, shu bois u alohida gapda ta’kidlab aytilgan. Lekin tabdilchi boshqacha o‘yinlar va o‘yinchoqlar o‘ynab o‘sgan avlod vakili bo‘lsa kerakki, to‘pning bunday sifatini bilmaganidan 1933-yil nashrida kam qo‘llanuvchi “*chiqag‘on*” so‘zini tushunmagan va “chiqarg‘on” deb tahrirlagan bo‘lsa, ehtimol. Nima bo‘lganida ham bu tahrir – xato, shuning uchun uchinchi nashrda u yana eski holiga qaytarilgan.

So‘zning kontekstdagi ma’nosini, gap nima haqida borayotganini yaxshi tushunmagan holda tuzatishga jazm etish muqarrar ravishda uslubiy g‘alizlik, mazmunning xiralashishi yoki butkul o‘zgarib ketishiga olib keladi. Ra’nodan xat olgan Anvarning ziddiyatli o‘ylari haqida adib yozadi: *“Chunki, Ra’noga uchrashishdan hech bir foyda tasavvur qilmag‘an muhokamasi qarshisidagi kuchlik bir mayl, Ra’noga yo‘liqishda foyda emas, ma’no ko‘rsatar edi...”* To‘g‘ri, gapning qurilishi birmuncha murakkab, lekin unda mazmunni to‘g‘ri tushunishga yo‘naltiruvchi *“muhokama – mayl”, “foyda – ma’no”* zidlashlari mavjud.

1933-yil nashrida *“foyda – ma’no”* zidlashi *“foyda – Ra’no”* shakliga kelib, gap “*Ra’noga yo‘liqishda foyda emas, Ra’no ko‘rsatar edi...”* deb tugallanadi va mazmundan mosuvo bo‘ladi. Tahrirda “ma’no” so‘zining “Ra’no”ga o‘zgargani tabdilchining muhim zidlashni, demakki, gap mazmunini anglamaganiga dalolat qiladi. Tan olish kerakki, bu ravon o‘qib borgandayoq tushunilaveradigan gap emas, biroz sekinlash, mazmuniy-mantiqiy bog‘lanish va grammatik aloqalarni aniqlab olishni taqozo etadi. Fikrimizcha, bunda “mayl” so‘zidan keyin qo‘yilgan vergulning olib tashlanishi katta yordam berishi mumkin. 1935-yil nashrida “ma’no” so‘zi tiklangani holda, mazkur vergul qoldirilgan (“chunki”dan keyingi vergul tushirilgan). Holbuki, agar vergul tushirilganida edi, ega bilan kesimning ajralib qolishi bartaraf etilib, ularning mazmuniy-grammatik aloqasi yaqqol ilg‘anar, demak, gapni tushunish ham osonlashar edi.

Jumlaning qurilishi, gap bo‘laklari va qismlarining o‘zaro mazmuniy aloqalarini yetarli darajada anglamaslik ham ba’zi xatolarga sabab bo‘lgan. Ra’noning yuqorida eslatilgan xatida “*Anvar aka, og‘ir soatlarda yoningizda turg‘uchi do‘stdir, qochquchi esa kim, buni sizning hukmingizga havola qilaman”* degan gap bor. Ko‘rib turganimizdek, Ra’noning gapi “yoningizda turg‘uchi – do‘st, qochquchi esa – ...” tarzidagi mazmuniy asosga qurilgan. Ya’ni qochquchi kimligini aytishni Anvarga havola etish bilan Ra’no oshig‘ining vijdoniga murojaat qiladi. Xuddi shu gap 1933-yil nashriga “*Anvar aka og‘ir soatlarda yoningizda turuchi do‘stdir, qochuchi emaski, buni sizning hukmingizga havola qilaman”* shaklida o‘tgan. Bu gap “yoningizda turg‘uchi – do‘st, qochquchi emas” tarzidagi mazmuniy asosda turibdi. Ya’ni unda hukm ifodalanib bo‘lgan, Anvarning hukmiga havola qilinadigan narsa qolmagan. Demak, gapning “*buni sizning hukmingizga havola qilaman”* degan ikkinchi qismi mutlaqo ortiqcha bo‘lib qolmoqda. Eng muhimi, bu shaklida gap Ra’noning Anvarga iddaosigina bo‘lib qoladi, oshig‘ining vijdoniga murojaati emas. Shuning uchun ham 1935-yil nashrida jumla yana eski shakliga qaytarilgan.

Afsuski, bu kabi gaplarning qurilishi o‘zgarib ketgan holatlar ham oz emas. Masalan, 1929-yil nashridagi mana bu gapni olaylik: “*Mehmonxonada Anvar yo‘q, Anvar o‘rnida begona bir kishi – Sultonali mirzo o‘lturar edi”*. Agar Anvar ismining takrorlanganiga ko‘z yumsak, gap uslubiy jihatdan juda yaxshi qurilgani, imlosi va punktuatsiyasi ham binoyidek ekanini e’tirof etish lozim. Zero, bu gapda Safar bo‘zchi nigohi bilan ko‘rilgan holat aks ettirilyapti. Safar bo‘zchi esa Anvar bilan ko‘rishaman deb mehmonxonaga kirdi, uning o‘rnida boshqa odam o‘tirganini ko‘rdi va bir qadar shoshdi – uchala jumla (Anvar yo‘q – boshqa odam – Sultonali o‘tiribdi)dagi holat bitta fokusda va bir onda akslanmoqda. Shu ma’noda jumlaning qurilishi holatga nihoyatda mosdir. Biroq ayni shu gap 1933-yil nashriga uchta gapga bo‘linib o‘tgan: “*Mehmonxonada Anvar yo‘q. Anvar o‘rnida begona bir kishi. Sultonali mirzo o‘lturar edi”*. E’tibor bering, endi yuqorida tavsiflangan badiiy-uslubiy effekt yo‘qotilgan. Aslida buni aytib o‘tirishga ham hojat yo‘q: o‘qib ko‘riboq har kim ham anglab olaverishi mumkin. 1935-yil nashrida bundagi yo‘qotish qisman qoplangan: “*Mehmonxonada Anvar yo‘q. Anvar o‘rnida begona bir kishi – Sultonali mirzo o‘lturar edi”.* Ko‘rib turganimizdek, bunda tasvir dinamikasi susaygan, Safar bo‘zchi nigohida jamlangan “bir ondalik” illyuziyasiga putur yetgan. Holbuki, agar gap 1929-yildagi shaklda qolib, ikkinchi gapdagi “Anvar” ismi “u” olmoshiga almashsa, mazkur effekt yanada kuchliroq namoyon bo‘lur edi. Darvoqe, shunga o‘xshash yo‘qotish 1929-yil nashridagi *“Kechasi. Yomg‘ur savalagandek yog‘ib turadir”* jumlasining boshqa nashrlarning deyarli hammasida *“Kechasi yomg‘ur savalagandek yog‘ib turadir”* shaklida berilgani sabab ham yuz bergan. Zotan, ilk nashr shaklida ***tasvir***, keyingisida ***xabar*** mazmuni ustuvor. Matnning ayni kompozitsion bo‘lagida dialog kechadigan joy tasviri berilganki, birinchi shakl shunga uzukka ko‘z qo‘ygandek tushsa, ikkinchi shakl razm solgan kishiga anchagina “o‘dur-budur”li, sayqallashga muhtoj bo‘lib ko‘rinadi.

Sirasi, ba’zi xatolarga duch kelganda, “bunga qanday qilib yo‘l qo‘yish mumkin?” deya o‘ylab boshing qotadi kishi. Masalan, malikalardan birining chiqib kelishi tasviridagi mana bu jumlalarda: *“Roziya xonim orqasidan sakkiz-to‘qquz yoshlar chamaliq, ko‘z va tishidan boshqa a’zosida oqi yo‘q bir bola ko‘rinib, xonimni ta’qib etdi. Bu yosh yugurdak qulcha xonimning har bir mayda xizmatlariga tayyor kabi oyog‘ olar edi”*. Ko‘rib turganimizdek, bu yerda gap habash qulbachcha haqida borayotirki, buni tushunmaslikning hech iloji yo‘q. Shunga qaramay, 1933-yil nashrida ikkinchi gapdagi “qulcha” so‘zi bosh harf bilan va keyingi so‘zga qo‘shib berilgan. Avvalo, mohiyatan bitta kishini atayotgan “*yosh yugurdak qulcha”* so‘z birikmasidan bosh harf bilan yozilgan “Qulcha” so‘zi ajralib, “xonim” bilan qo‘shilgan holda yangi so‘zni tashkil qilmoqda. Natijada endi *yaş jygyrdək* avvalgi gapga mazmunan bog‘lanib Roziya xonimning emas, balki Qo‘lchaxonimning “*har bir mayda xizmatlariga tayyor kabi oyog‘ olayotgan”* bo‘lib qoladi. Shunisi qiziqki, 1935-yil nashrida yana Roziya xonim xizmatiga tayyorlik mazmunini ifodalashga harakat qilingan va jumla mana bu shaklga keltirilgan: *“Bu yaş jugurdək Qolca, xanimnıŋ hər bir məyda xizmatlariga tajjar kabi ajaqı alar edi...”* Ya’ni endi go‘yo Qo‘lcha ismli yosh yugurdak xonim (avvalgi gapga

bog‘langan holda Roziya xonim)ning xizmatiga tayyor degan mazmun kelib chiqadi. Xullas, jumla mazmuni bunchalik o‘zgarib ketgani uni muallif tahrirlamagan degan to‘xtamga olib keladi.

Yuqorida aytilganidek, uchinchi nashrda 1933-yil nashri matnidagi juda ko‘p imlo va punktuatsion xatolar tuzatilganki, ularning barini sanashning imkoni ham, zarurati ham yo‘q. Biroq bu 1935-yil nashrining mukammalligiga aslo dalolat qilmaydi, negaki, unda tuzatilmay qolgan, chala yoki noto‘g‘ri tahrir qilingan, shuningdek, faqat shu nashr matnida paydo bo‘lgan xatolar ham anchagina uchraydi. Masalan, “Zulm o‘chog‘i” faslida Xudoyorxon “Madrasai oliy”-ni va “Dahmai shohon”ni bino qildirgani haqida ma’lumot beriladi. 1935-yil nashrida bu ikki obida nomi ham xato berilgan: “Madrasaiy ali” (“Madrasaij ali”) va “Dahmai jahon” (Daxmai çahan). Shundayki, bu tarzdagi yozilish 1933-yildagi bilan qariyb bir xil, ya’ni avvalgi nashrdagi xatolik ko‘rilmagan ham, tuzatilmagan ham. Shunga o‘xshash, qiziqlar tomoshasini boshlash oldidan Zokir govning xonga murojaatida “*biz axli tama’ bechora, nafs ilgida ovora g‘ariblar har qaysimiz besh paysa, o‘n paysa tama’ xapidan yutib, dargohingizga yuzlandik”* degan iqror bor. Ya’ni Zokir gov tama ilinjida tomosha qo‘yishlari, bu yerga qiziqlarning har qaysisi *“ta’ma xapi”* – ***tama tabletkasi*** ichib kelganini aytadi. 1935-yil nashrida ushbu so‘z birikmasi *“ta’ hapi”* shaklida berilgan va ma’nodan tamom ayrilgan.

Tahrirda “qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarilgan” o‘rinlar ham, afsuski, yo‘q emas. “Qirq qizlar” faslidagi bazm boshlanishi tasvirida mana bu jumla bor: “*Nozik o‘rtada xiromon bir tarafka o‘tkan edi qizlarning ba’zisidan soz kabi sho‘x va nafis ohang eshitildi”*. Ko‘rib turganimizdek, jumla yaxshi tuzilgan, e’tiroz qilishga o‘rin yo‘q. Ikkinchi nashrda “eshitilmoq” fe’liga orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgani istisno qilinsa, 1929- va 1933-yil nashrlarida bu jumla bir xil shakllantirilgan. Biroq 1935-yil nashrida u mana bunday tahrirlangan: *“Nozik o‘rtada, Xiromon bir tarafka o‘tkan edi, qizlarning ba’zisidan soz kabi sho‘x va nafis ohang eshitildi”*. Ko‘rib turganimizdek, tahrir natijasida o‘rtada bir emas, ikki kaniz – Nozik bilan Xiromon harakatlanayotgan bo‘lib qolmoqda. Holbuki, bu yerda “xiromon” kishi ismi ma’nosida emas, balki “noz-karashma bilan chiroyli yuruvchi” ma’nosida. Ya’ni gap Nozikning o‘rtada noz-karashma bilan chiroyli yurib, bir tomonga o‘tgani haqida edi. Tahrirda esa Nozik o‘rtada turib qolib, yo‘qdan bino bo‘lib qolgan boshqa bir qiz – Xiromon bir tomonga shunchaki (ya’ni raqsga xos xirom bilan emas) yurib o‘tgan bo‘lib chiqadi.

Tahlil va kuzatishlarimiz, 1935-yil nashrida matn bir qator tahrir qilingani, imlo va punktuatsiya jihatidan biroz yaxshilangani, qator badiiy-uslubiy va mazmun jihatidan yaxshilashga qaratilgan tahririy o‘zgarishlar qilinganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, matnda hamon tuzatilishi, tahrir qilinishi zarur o‘rinlar qolgani, boz ustiga, unda yangi imlo va punktuatsiya xatolari, uslubiy kamchiliklar vujudga kelgani ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Shunga ko‘ra, adib hayotligida chop qilingan va uning nazaridan o‘tgan bo‘lsada, ushbu nashrni ham, xuddi avvalgi ikki nashr kabi, etalon sanab bo‘lmaydi.

Adabiyotlar:

1. Абдулла Қодирийнинг бадиий дунёси (мажмуа). – Тошкент: Университет, 1994. – 120 б.
2. *Каримов Б.* Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Fan, 2006. – 236 б.
3. *Норматов У.* Қодирий боғи. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 220 b.
4. *Норматов У.* Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 272 б.
5. *Расулов А.* Романнинг машаққатли йўли // Шарқ юлдузи. – 1989. –№ 7. – Б. 185-190.
6. *Султонов Х.* Шоирона дарвешона бир маъно // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1991 йил 1 июнь.
7. *Қаҳрамонов А.* “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000. – 153 б.
8. *Qodiriy A.* Mehrobdan chayon. – Tashkent: O‘zdavnashr, 1929. – 346 b.
9. *Qodiriy A.* Mehrobdan chayon. – Tashkent: O‘zdavnashr, 1933. – 248 b.
10. *Qodiriy A.* Mehrobdan chayon. – Tashkent: O‘zdavnashr, 1935. – 292 b.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. / А.Мадвалиев таҳрири остида. Y жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 672 б.
12. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IY жилдлик. 1-жилд. А-З. / Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.

ABOUT THE THIRD EDITION OF "THE SCORPION FROM THE ALTAR"

D.H. Kuronov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 71-78.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

***Key words**: text, second edition, author, editor, correction, change*

The article is devoted to the study of the third edition (1935) of Abdulla Qodiriy's second novel "Mehrobdan Chayon" (Scorpion from the Altar). The text of this edition is comparatively analyzed with the first one of 1929 and the second edition of 1933. On this basis, it is emphasized that, compared to the second edition, the 1935 version shows considerable linguistic - orthographic improvement, largely due to the positive influence of the 1934 spelling reform. This becomes particularly evident when comparing it with the 1933 edition.

It is reported that before the publication of the third edition, the author himself reviewed the text - a claim supported by the nature of the textual changes. Indeed, most of the revisions made to the text were beneficial, as numerous examples confirm. The study notes that the editorial modifications in the third edition generally served the purpose of refining the text, eliminating certain stylistic roughness, clarifying vague passages, and correcting previous errors. These conclusions are supported by concrete examples through comparative analysis of various edition variants.

Based on the comparative study, it is concluded that the revisions which improved the text - although the author's edited manuscript has not survived and there are no documentary proofs confirming this - most likely belong to the author himself. At the same time, the 1935 edition also contains changes that cannot be attributed to the author, that is, those which most likely appeared as a result of typographical or editorial errors.

While distinguishing between these two types of editorial interventions might seem to rely on a simple "beneficial vs. harmful" criterion, such differentiation is, in fact, highly significant. This approach, if taken into account in future editions, would contribute to producing more accurate and high-quality publications.

Our analysis and observations demonstrate that the 1935 edition underwent a number of revisions, showing noticeable improvements in spelling and punctuation, as well as numerous stylistic and semantic refinements aimed at enhancing the artistic quality of the text. However, certain passages still require correction and editing; moreover, new orthographic, punctuation, and stylistic inconsistencies were also introduced.

Therefore, although this edition was published during the author's lifetime and was likely reviewed by him, it cannot be regarded as an authoritative or standard text - just like the previous two editions. Nevertheless, for the preparation of future editions of "Mehrobdan Chayon" (Scorpion from the Altar), it would be most reasonable to use the 1935 edition as the main basis, while restoring the original readings of earlier versions in place of later editorial insertions. Such an approach remains the most appropriate method for the present time, given that a scholarly critical text of the novel has not yet been prepared.

References:

1. (1994) Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi (majmua) [The artistic world of Abdulla Qodiri (compilation)]. Tashkent: Universitet.

2. Karimov, B. (2006). *Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin* [Abdullah Kodiri: criticism, analysis and interpretation]. Tashkent: Fan.

3. Normatov, U. (1995). *Qodiriy bog'i* [Qodiri's park]. Tashkent: Yozuvchi.

4. Normatov, U. (2010) *Qodiriy mo'jizasi* [Qadiri's miracle]. Tashkent: O'zbekiston.

5. Rasulov, A. (1989). *Romanning mashaqqatli yo‘li* [The arduous path of the novel]. Sharq yulduzi. No 7. Pp. 185-190.

6. Sultonov, X. (1991). *Shoirona darveshona bir ma’no* [A poetic dervish has a meaning]. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. June 1

7. Kahramonov, A. (2000). “Mehrobdan chayon” romani poetikasi [Poetics of the novel “Scorpion from the Altar”]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

8. Kadiri, A. (1929). *Mehrobdan chayon* [Scorpion from the altar]. Tashkent. O‘xdavnashr.

9. Kadiri, A. (1933). *Mehrobdan chayon* [Scorpion from the altar]. Tashkent. O‘zdavnashr.

10. Kadiri, A. (1935). *Mehrobdan chayon* [Scorpion from the altar]. Tashkent: O‘zdavnashr.

11. Madvaliyev, A. (ed.) (2020). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

12. Fozilov, E.I. (ed.) (1983). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works]. In 5 volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

QURONOV Dilmurod Haydaraliyevich – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: kuronov@rambler.ru